FE'L SO'Z TURKUMI INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA

https://doi.org/10.5281/zenodo.6470977

Turdiboyeva Dildora Bekmirza qizi
Xorijiy til va adabiyoti magistratura talabasi
Jizzax Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida fe'llarning vazifasi, aniq va noaniq shakllarining mavjudligi, ularning gapda tuslanib yoki tuslanmay kelishiga ko'ra bir-biridan farq qilishi, shaxs-son, zamon hamda payt shakllarida o'zgarishi, gapda esa kesim vazifasida keluvchi fe'l shakllari, fe'lning aniq ya'nikim predikativ shakllari deyilishi, harakatni ifodalovchi so'zlar turkumi, ingliz va o'zbek tillarida grammatika sida "harakat" tushunchasi, fe'llarning lug'aviy ma'noga egaligi yoki ega emasligiga ko'ra turlari, yordamchi fe'llarning ingliz tilidagi ahamiyati, fe'l shakllarining turli grammatik, modal, va boshqa ma'nolarda ifodalanishi, fe'lning o'ziga xos Grammatik kategoriyalari haqidagi fikrlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *fe'lning aniq shakli, suffiks, leksik-grammatik ma'no, harakat tushunchasi, mustaqil fe'llar, yordamchi fe'llar, grammatik kategoriya, holat, sifatdosh II, vazifa shakllar, nisbat kategoriyasi.* *Ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarning fe'l so'z turkumini gapda to'g'ri qo'llay olishi bugungi kun ingliz tili o'qitish metdikasining asosiy vazifasi hisoblanadi. Fe'l so'z turkumi esa o'z navbatida bir necha tur va shakllarni o'z ichiga oladi. Fe'l shakllarini gapda to'g'ri qo'llay olish deganda, talabaning ingliz tili grammatikasi va leksikasi bo'yicha mukammal bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi tushuniladi. Buning uchun esa, ona tili va o'rganilayotgan tildagi ma'lum bir til birligini chog'ishtirma tahlil qilish va tahlil natijalariga qarab fe'llarning shakllarini to'g'ri qo'llay olish holatlarini ko'rib chiqish zarurdir. Fe'lning grammatik shakllari va ularning mohiyati haqida gapirganimizda shuni ta'kidlash mumkinki, fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, harakat, holat yoki jarayonni ifodalaydi.*

Fe'l ish-harakat, mavjudlik, holat va munosabat zamon nuqtai nazaridan bilgan holda jarayon shaklida voqelik bilan bog'laydi. Mana shu xususiyati bilan fe'l undan yasalgan otlardan farq qiladi. Fe'lning so'z turkumi sifatida xarakterlanishi:

1. Harakat, holat yoki jarayon sifatidagi leksik-grammatik ma'nosi.
2. O'ziga xos o'zak yasovchi quyidagi suffikslar (-ize, -en,-ify;) va prefikslarga (re, over-, out-, miss-, un;) hamda leksik-grammatik so'z morfemalarga egaligi.
3. Fe'l boshqa so'z turkumlariga qaraganda so'z o'zgartirish va so'z yasash borasida ancha rivojlangan, bunga sabab uning bir qancha Grammatik kategoriyalarga egaligidir.
4. Fe'lning o'ziga xos tarzda bog'lanishi.

5. Gapda turlicha sintaktik vazifalarda kela olishi.

Fe'l - harakatni, holatni yoki jarayonni ifodalab, zamon, mayl, nisbat, perfekt, modallik va boshqa shu kabi grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan so'z turkumidir. Fe'llar harakatni bildiruvchi so'zlardir. Grammatikada harakat ma'nosi juda keng bo'lib, u to run (yugurmoq), to swim (suzmoq) kabi fe'llar ifodalaydigan harakatlarni, to sit down (o'tirmoq), to stand (turmoq) kabi fe'llar ifodalaydigan holatlarni, to surprise (hayratlanmoq), to worry (xavotirlanmoq) kabi fe'llar ifodalaydigan ruhiy o'zgarishlarni, to blossom (gullamoq), to grow (o'smoq) kabi fe'llar ifodalaydigan biologik hodisalarni hamda shu kabi harakat va hodisalarni o'z ichiga oladi. Yuqorida sanalganlarning hammasi o'ziga xos xususiy shakllarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan tomoni ham mavjuddir, ya'ni ular zamon bilan bog'liq holda yuz beruvchi hodisalar bo'lib hisoblanadi. Fe'l mustaqil so'z turkumi bo'lib, u harakat, holat yoki jarayonni, ya'ni ma'lum bir belgining paydo bo'lishi va o'zgarishi kabi harakatni ifodalaydi. Fe'lga xos bunday ma'nolarning barchasi uni boshqa so'z turkumlaridan farqlashga yordam beradigan umumiy harakat ma'nosiga borib taqaladi. Yu.S.Maslov ta'kidlaganidek, fe'l vaqt davomida sodir bo'ladigan belgining, harakatning grammatik ahamiyatini ifodalaydigan so'z turkumi bo'lib hisoblanadi. Harakatning grammatik ahamiyatini keng ma'noda tushunish mumkin.[1] U nafaqat harakat va tom ma'nodagi faoliyatni ifodalaydi, balki holatni va ma'lum bir predmet yoki shaxsning mavjudligini ko'rsatadi. Masalan:

A cow is a domestic animal.

I swam in the river.

She will be a teacher.

Ingliz va o'zbek tillaridagi fe'l so"z turkumining mayl kategoriyasida ham o'xshashlik va farqlar mavjud. Indicative mood o'zbek tilida xabar mayli bilan to'g'ri keladi, imperative mood esa Buyruq-istak mayli bilan. Ammo o'zbek tilidagi maqsad mayliga o'xshaydigan mayl ingliz tilida yo'q, shuning uchun u ifodalayotgan ma'noni Indicative mood (xabar mayli) bilan o'zaro taqqoslashimiz mumkin. Misol uchun: I want to be a teacher-Men o'qituvchi bo'lmoqchiman..

Ahamiyatli tomoni shundaki, fe'l o'zida ma'lum bir vaqt davomida amal bo'ladigan harakatga oid xususiyatlarni aks ettiradi. Bu xususiyatlar fe'lning shaxsli shakllarida namoyon bo'ladi va shuning uchun ham fe'l shaxsli shakllarining sintaktik vazifasi gapda faqat predikativ sifatida qo'llanilishdan iboratdir. Fe'lning so'z o'zgartirish tizimi boshqa so'z turkumlariga qaraganda ancha boy va turli-xildir. U nafaqat flektiv tillarga xos bo'lgan sintetik usulga ega, balki o'zakka formantlar qo'shilishi yoki analitik usulga ham egadir. Shuni ta'kidlash joizki, fe'l analitik shakllarga ega bo'lgan yagona so'z turkumi hisoblanadi. Fe'llarning so'z o'zgartiruvchi tizimiga alohida e'tibor qilsak, affiksatsiya usuli bilan yasaladigan suffiksli fe'llar ancha kamchilikni tashkil etishining va konversiya yo'li bilan yasaladigan qo'shma fe'llarning anchagina ko'pligining guvohi bo'lamiz. Ingliz tilida fe'llar tashqi tuzilishiga ko'ra

grammatik kategoriyalari va sintaktik vazifalariga bog'liq tarzda shaxsli va shaxssiz shakllarga bo'linadi. Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham fe'llar morfologik, leksik – semantik, leksik – grammatik xususiyatlariga koʻra boshqa soʻz turkumlaridan ajralib turadi. Misol uchun oʻzbek tilidagi fe'llar leksik – grammatik aspektlariga koʻra mustaqil fe'llar va yordamchi fe'llarga boʻlinadi. Mustaqil fe'llar harakatni bildiradi, mustaqil ma'noga ega boʻlgan va gapda uning biror boʻlagi vazifasida kela oladi. Nafaqat oʻzbek tilida balki ingliz tilida ham mustaqil fe'llarning ot, sifat, ravish turlariga xos xususiyatlariga ega boʻlgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari mavjuddir. Masalan: Suzish foydali sport(Swimming is a useful sport) yordamchi fe'llarga ega harakat bildirmaydi, mustaqil ma'no ifodalamaydi. Ular turli grammatik ma'no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada ishlatilinadi. Yordamchi fe'llar asosiy xususiyatlariga qarab, soʻz yasash uchun xizmat qiluvchi va bogʻlanma fe'l vazifasini bajaruvchi yordamchi fe'llar, fe'llarga birikib turli qoʻshma ma'no ifodalovchi fe'llarga ajratiladi. Ingliz tilida mavjud boʻlgan fe'llarning barchasi ma'lum bir morfologik xususiyatlariga koʻra ikki guruhga boʻlinadi. Bu ma'lum bir morfologik xususiyat oʻtgan zamon shakllarining va sifatdosh II ning yasalish usullari bilan bogʻliqdir. Birinchi guruhga toʻgʻri fe'llar, ikkinchi guruhga esa notoʻgʻri fe'llar kiradi. I.P.Ivanov, V.V.Burlakova va G.G.Pochepsovlar oʻzlarining kitobida bu ikki guruhni standart va standart boʻlmagan fe'llar guruhi deb ataydi. Birinchi guruh fe'llari, ya'ni toʻgʻri fe'llar ingliz tilida koʻpchilikni tashkil etadi. Ular dental (tish ishtirokidagi) suffiksning qoʻshilishi bilan yasaladi. Ularning uch xil fonetik koʻrinishi mavjud boʻlib, birinchi holatda soʻz oxiridagi jarangli undosh va unlidan soʻng /d/ tovushi qoʻshiladi: saved /seivd/; achoed /ækoud/; ikkinchi holatda jarangsiz undoshdan soʻng /t/ tovushi qoʻshiladi: looked /lukt/; uchinchi holatda esa tish undoshlaridan soʻng /id/ tovushi qoʻshiladi: loaded / loudid/. Ikkinchi guruhni esa notoʻgʻri fe'llar tashkil etadi. Notoʻgʻri fe'llar asosan, kuchli fe'llardan iborat boʻlib, ular qadimgi ingliz tiliga xosdir. Hozirgi zamon ingliz tilida bunday fe'llar unchalik mahsuldor bo'lmagan, lekin oʻzlarining shakllarini qat'iyan saqlab qolgan fe'llar sanaladi.[2]

Ingliz tilida fe'llarning yuqorida sanab oʻtilgan ikki turidan tashqari yana bir turi bo'lib, ular aralash fe'llar deyiladi. Aralash fe'llar ingliz tilida qolgan ikki guruhga nisbatan juda kamchilikni tashkil etadi. Ular toʻgʻri fe'llardek yoki notoʻgʻri fe'llardek yasalishi mumkin bo'ladi. Bunday fe'llarga show, mow, sow, ripe va boshqalar kiradi. Ularning ayrimlari sifatdosh shaklida ikki xil koʻrinishni oʻzlarida aks ettirishlari mumkin : show-showed, shown, shown.

Fe'l asosan shaxs faoliyatini ko'rsatib keladigan so'z turkumidir. Bunday ta'rif har ikkala tilga ham ya'ni, ingliz va o'zbek tillariga xos bo'lib, buni quyida keltirilgan misollarda ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

We are going to move to another city.

O'zbek tilimizda ham quyida keltirilgan misolni olishimiz mumkin. Masalan:

U taomni oxirigacha yeb bo'ldi.

Yuqoridagi misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar fe'l turkumiga oid bo'lib, ular gapdagi sub'yektning faoliyat turtini ko'rsatib kelayapti.

Ingliz tilidagi Gerundning o'zbek tilida to'liq sinonimini topishning imkoni yo"q. Gerund fe'llarning fe'llik va otlik xususiyatiga ega hisoblangan shaklidir. Gerundda infinitivga qaraganda otlik xususiyati ko'proqdor. O'zbek tilida gerundga harakat nomi mutanosib keladi. Cooking is my favourite hobby – Pishirish bu mening eng sevimli mashg'ulotim. Lekin ayrim hollarda gerund o'zbek tilidagi ravishdoshga va sifatdoshga ham mutanosib keladi: He saw her sister dancing. U singlisining raqs tushishini ko'rdi (ravishdosh); Studying pupils always try to get higher marks. Ta'lim olayotgan o'quvchilar hamisha yaxshi baho olishga harakat qilishadi.

Ingliz tilida fe'lning quyidagi grammatik kategoriyalari bor: Perfekt (korrelyatsiya) kategoriyasi (The category of perfect (correlation Order), nisbat kategoriyasi (The category of voice), shaxs kategoriyasi (The category of person), son kategoriyasi (The category of number), zamon kategoriyasi (The category of tense), aspekt (tus, tarz) kategoriyasi (The category of aspect), mayl kategoriyasi (The category of mood). Hozirgi o'zbek tilida fe'lga xos grammatik kategoriyalar quyidagilarni tashkil etadi: daraja, bo'lishli yoki bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs – son turlaridir. Fe'llarning grammatik kategoriyalari deganda biz fe'l turkumiga kiruvchi so'zlarning sintetik yoki analitik formalarini o'zaro qarama – qarshi qo'yish vositasida ifodalanishini tushunamiz. Nisbat kategoriyasi xususida gapirganimizda esa, unga shunday izoh berish mumkinki, fe'lga xos nisbtan kategoriyasi sintaktik konstruksiya tomonidan ifoda etilgan vaziyatning ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat xarakteri va uning yo'nalishini ko'rsatib beradi. Nisbat kategoriyasining tilda mavjudligini odatda fe'lning aniq nisbat shakllarini majhul nisbat shakllariga qarama-qarshi qo'yish yo'li bilan aniqlanadi. Majhul nisbat sintaktik qurilma egasi tomonidan ish-harakatni o'ziga qabul etishni ifodalaydi. Bu qurilmalardagi ega majhul yoki passiv ega deb yuritiladi va ish-harakatning ob'yekti vazifasini o'taydi. Aniq nisbat shakli bu oppozitsiyaning kuchsiz a'zosi bo'lib, mazkur ma'noni umumlashtirgan holda nomajhullik tarzida ifoda etadi. Bu nomajhullik o'zbek tilida kauzativ nisbat, o'zlik nisbat, birgalik nisbatlar tarzida namoyon bo'lishi mumkin. Ingliz tilida fe'llarning majhul nisbat shaklida ishlatilinish ko'lami ancha kengdir. Misol uchun, majhul nisbatdagi fe'llarni ma'nosini saqlagan holda aktiv nisbatga aylantirish mumkin: Othello was written by William Shakepeare – Otello Uilyam Shekspir tomonidan yozilgan.

Bundan tashqari ingliz tilida o'timli fe'llargina majhul nisbatga aylantirilishi mumkin bo'lsa o'zbek tilida esa aksincha. Masalan:

Susan has just been bitten by a dog.

(Susanani hozirgina kuchuk tishlab oldi).

The plans were refused to do.

(Rejalar bajarilishi rad etildi).

Yuqoridagi misollarning birinchisida ingliz tilidagi majhul nisbat turi o'zbek tilida birgalik nisbatbshaklida berilayapti. Ikkinchi gapda esa ingliz tilidagi majhul nisbat shakli o'zbek tilida ham saqlanayotganini ko'rishimiz mumkin.

Ingliz tilini o'qitishda asosiy e'tibor bugunda ingliz tilidagi Grammatik strukturalarni orgatishdan boshlanmoqda. Bu esa o'z navbatida o'rganilayotgan til bilan ona tilini birgalikda solishtirib, qiyoslab o'rganishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Galskova N.D. "Teoriya obuchanniem innostrannix yazikam" Izdatelskiy sentr "Akademiya" 2006.
2. M.G'apporov, R.Qosimova "Ingliz tili grammatikasi", Toshkent, "Turon-Iqbol". 2010
3. Bo'ronov J., Hoshimov O'., Ismatullayev X. Ingliz tili grammatikasi.-T., 1974.
4. Rayevska N. Modern English Grammar. – Kiev: Kiev State University Publishing House, part I, 1967.